XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 16 - yanvar VI-58-2-10-212-K/23 Toshkent tuman hokimligi

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-son qarori to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni, Budjet kodeksining 99-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Mahalliy hokimiyati to'g'risidagi Qonunining 6, 24-moddalari hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent tumani Kengashi VI-chaqiriq 58-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30 dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023 yil 6 yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-son qaroriga muvofiq, Toshkent tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 101 095 173,0 ming so‘m va xarajatlari 178 540 343,0 ming so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil uchun Toshkent tumani mahalliy budjeti daromadlar rejasi ko‘rsatgichlari prognozi 1-ilovaga muvofiq, 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti xarajatlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining qarori bilan tasdiqlangan

2022-yil uchun Toshkent tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

4. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromad va xarajatining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari
5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjet daromad prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2023-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 684 343,0 mln so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Toshkent tuman budjetining, tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

7. 2023-yil uchun tumanning budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 049 869,0 ming so‘mni hamda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida, iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 7-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy

budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 64 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 64 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga

muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

10. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Toshkent tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Ergashev), tuman Moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov), Davlat soliq inspeksiyasi (I.Xo‘jayarov) tuman hokimligi va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Xo‘jayarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib, soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini ta'minlasin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Xo‘jayarov), tuman moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023 yilning 1 iyuliga qadar 2022 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

14. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

15. Tuman Moliya bo'limi (B.Abduraxmonov):

tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin. Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirish uchun taqdim etsin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Ergashev) :

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga chorak yakuni bilan hisobot kiritib borsin.

17. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Toshkent tuman hokimligi matbuot xizmati (D.Ismailova)ga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasiga va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Rustamov**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumani tuman budjeti daromadlarining 2023 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**101 095 173,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	9 667 371,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	12 018 528,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 955 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	10 868 094,0
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	3 892 440,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 557 146,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 702 691,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 421 657,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	1 557 146,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 135 650,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 322 191,0
13	Davlat bojii	0
14	Jarimalar	0
15	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	697 024,0
17	Yig‘imlar	0
18	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	30 857 381,0
19	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	12 483 392,0

20	Mobil aloqa xizmati	5 354 649,0
21	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	13 019 340,0

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti xarajatlari reja ko‘rsatkichlari prognozi

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori** (ming so‘m)
	Xarajatlar – jami	**178 540 343,0**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar – jami**	125 885 972,0
1.1	Maorif	22 991 290,0
	- maktabgacha ta’lim	12 187 599,0
	- umumiy ta’lim	10 803 691,0
1.2	Sog‘liqni saqlash	72 660 459,0
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	4 210 072,0
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 083 178,0
	- sport	3 126 894,0
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	25 790 304,0
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	46 000,0
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	187847,0
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**15 538 900,0**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	455 587,0
2.2	Obodonlashtirish	10 878 054,0
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 509 069,0
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1 078 726,0
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 617 464,0
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**22 239 700,0**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	22 239 700,0
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**4 769 714,0**
5	**Zahira jamg‘armasi**	**1 684 343,0**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**8 421 714,0**

Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 77 245 170.0

Xalq deputatlari Toshkent tuman Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Toshkent tumani**	10	10	10	10	10	50	100	100

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
4-ilova

Toshkent tuman budjetining 2023 yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Toshkent tumani	101 095 173,0	17 854 034,0
	JAMI	**101 095 173,0**	**17 854 034,0**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
5-ilova

Toshkent tumanining tuman budjetlariga 2023 yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Summa
1	Toshkent tumani	77 445 170.0
	JAMI	**77 445 170.0**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
6-ilova

Toshkent tuman tumani budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Toshkent tumani	1 049 869.0
	JAMI	**1 049 869.0**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha MFY kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Jismoniy shaxslardan turar joy uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari 1 kv.m uchun		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming so‘mda)
1	Avliyo ota MFY	1.10	392,04	1.10	39 600,0
2	Ayriota MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
3	Alisher Navoiy MFY	1,10	392,04	1,10	43 560,0
4	Axillik MFY	1,00	356,4	1,00	31 680,0
5	Baxor MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
6	Beruniy MFY	0,90	320,76	0,90	29 700,0
7	Beshterak MFY	0,90	320,76	0,90	29 700,0
8	Bog‘bon MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
9	Bog‘izilol MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
10	Bunyodkor MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
11	G‘isht ko‘prik MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
12	Gul tepa MFY	0,80	285,12	0,80	29 700,0
13	Gulobod MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
14	Darxon MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
15	Diydor MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
16	Zarbdor MFY	0,90	320,76	0,90	29 700,0
17	Zargar MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
18	Zaxariq MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
19	Ibrat MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
20	Iqbol MFY	1,15	409,86	1,15	45 540,0
21	Istiqbol MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
22	Iftixor MFY	1,10	392,04	1,10	43 560,0
23	Kalas MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0

24	Qashqarlik MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
25	Kensoy MFY	0,80	285,12	0,80	29 700,0
26	Qizg‘aldoq MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
27	Qir-ariq MFY	1,10	392,04	1,10	33 660,0
28	Qora bo‘rik MFY	0,80	285,12	0,80	29 700,0
29	Qorasaroy MFY	1,10	392,04	1,10	37 620,0
30	Ko‘kterak MFY	1,10	392,04	1,10	33 660,0
31	Quruvchi MFY	0,80	285,12	0,80	29 700,0
32	Ko‘xinur MFY	0,80	285,12	0,80	29 700,0
33	Qush qo‘ndi MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
34	Ko‘ksaroy MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
35	Majnuntol MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
36	Ma’rifat MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
37	Mustaqillik MFY	0,90	320,76	0,90	29 700,0
38	Nurxayot MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
39	Obodlik MFY	1,10	392,04	1,10	33 660,0
40	Ozodlik MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
41	Oydin xayot MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
42	Oqibat MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
43	Oqtom MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
44	Oqtosh MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
45	Oltin tepa MFY	0,90	320,76	0,90	29 700,0
46	Raxbar obod MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
47	Sabzavot MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
48	Sag‘bon MFY	1,10	392,04	1,10	33 660,0
49	Sanoat MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
50	Sarke MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
51	Sirg‘ali MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
52	Soxibkor MFY	1,00	356,4	1,00	31 680,0
53	Tinchlik MFY	1,10	392,04	1,10	33 660,0
54	Tutzor MFY	1,15	409,86	1,15	45 540,0
55	Uch sada MFY	1,10	392,04	1,10	35 640,0
56	Uch-chinor MFY	1,00	356,4	1,00	29 700,0
57	Fayzobod MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
58	Farovon MFY	1,00	356,4	1,00	27 720,0

59	Xalimko‘p MFY	1,00	356,4	1,00	27 720,0
60	Xasanboy guzar MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
61	Xasanboy MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
62	Hiyobon MFY	1,00	356,4	1,00	27 720,0
63	Xuvaydo MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
64	Chig‘atoy MFY	1,10	392,04	1,10	39 600,0
65	Chuvalachi MFY	0,80	285,12	0,80	27 720,0
66	Shamsiobod MFY	0,90	320,76	0,90	27 720,0
67	Shirin MFY	1,00	356,4	1,00	27 720,0
68	E’zoz MFY	1,10	392,04	1,10	31 680,0

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2023 yil 16 yanvardagi
VI-58-2-10-212-K/23-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Avliyo ota MFY	1,00	1 000 000,0
2	Ayriota MFY	1,00	1 000 000,0
3	Alisher Navoiy MFY	1,00	1 000 000,0
4	Axillik MFY	1,00	1 000 000,0
5	Baxor MFY	1,00	1 000 000,0
6	Beruniy MFY	1,00	1 000 000,0
7	Beshterak MFY	1,00	1 000 000,0
8	Bogbon MFY	1,00	1 000 000,0
9	Bogizilol MFY	1,00	1 000 000,0
10	Bunyodkor MFY	1,00	1 000 000,0
11	Gisht kuprik MFY	1,00	1 000 000,0
12	Gul tepa MFY	1,00	1 000 000,0
13	Gulobod MFY	1,00	1 000 000,0
14	Darxon MFY	1,00	1 000 000,0
15	Diydor MFY	1,00	1 000 000,0
16	Zarbdor MFY	1,00	1 000 000,0
17	Zargar MFY	1,00	1 000 000,0
18	Zaxarik MFY	1,00	1 000 000,0
19	Ibrat MFY	1,00	1 000 000,0
20	Iqbol MFY	1,00	1 000 000,0
21	Istikbol MFY	1,00	1 000 000,0
22	Iftihor MFY	1,00	1 000 000,0

23	Kalas MFY	1,00	1 000 000,0
24	Kashkarlik MFY	1,00	1 000 000,0
25	Kensoy MFY	1,00	1 000 000,0
26	Kizgaldok MFY	1,00	1 000 000,0
27	Kir-arik MFY	1,00	1 000 000,0
28	Kora burik MFY	1,00	1 000 000,0
29	Korasaroy MFY	1,00	1 000 000,0
30	Kukterak MFY	1,00	1 000 000,0
31	Kuruvchi MFY	1,00	1 000 000,0
32	Kuxinur MFY	1,00	1 000 000,0
33	Kush kundi MFY	1,00	1 000 000,0
34	Ko‘ksaroy MFY	1,00	1 000 000,0
35	Majnuntol MFY	1,00	1 000 000,0
36	Ma’rifat MFY	1,00	1 000 000,0
37	Mustakillik MFY	1,00	1 000 000,0
38	Nurxayot MFY	1,00	1 000 000,0
39	Obodlik MFY	1,00	1 000 000,0
40	Ozodlik MFY	1,00	1 000 000,0
41	Oydin xayot MFY	1,00	1 000 000,0
42	Okibat MFY	1,00	1 000 000,0
43	Oktom MFY	1,00	1 000 000,0
44	Oktosh MFY	1,00	1 000 000,0
45	Oltin tepa MFY	1,00	1 000 000,0
46	Raxbar obod MFY	1,00	1 000 000,0
47	Sabzavot MFY	1,00	1 000 000,0
48	Sagbon MFY	1,00	1 000 000,0
49	Sanoat MFY	1,00	1 000 000,0
50	Sarke MFY	1,00	1 000 000,0
51	Sirgali MFY	1,00	1 000 000,0
52	Soxibkor MFY	1,00	1 000 000,0
53	Tinchlik MFY	1,00	1 000 000,0
54	Tutzor MFY	1,00	1 000 000,0
55	Uch sada MFY	1,00	1 000 000,0

56	Uch-chinor MFY	1,00	1 000 000,0
57	Fayzobod MFY	1,00	1 000 000,0
58	Farovon MFY	1,00	1 000 000,0
59	Xalimko‘p MFY	1,00	1 000 000,0
60	Xasanboy guzar MFY	1,00	1 000 000,0
61	Xasanboy MFY	1,00	1 000 000,0
62	Hiyobon MFY	1,00	1 000 000,0
63	Xuvaydo MFY	1,00	1 000 000,0
64	Chigatoy MFY	1,00	1 000 000,0
65	Chuvalachi MFY	1,00	1 000 000,0
66	Shamsiobod MFY	1,00	1 000 000,0
67	Shirin MFY	1,00	1 000 000,0
68	E’zoz MFY	1,00	1 000 000,0